

UDK:37.091.3(808.5)

O'QITUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY MASALALARI VA PEDAGOGIK SHARTLARI

Zulfizar Raxmonova

NamDu mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sitoraa@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolanutq texnikasi, notiqlik san'ati, nutq madaniyati haqida so'z yuritiladi hamda o'qituvchining faoliyatida nutq texnikasi qanchalik muhim o'rin tutishi haqida bahs yuritiladi. Nutq madaniyatini pedagogik sohada shakllantirishning ilmiy va nazariy jihatlari alohida ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: Notiqlik san'ati, ideal notiq, nutq odobi, suhandonlar, nutq texnikasi, til va nutq, nutqning ravonligi, pedagogik madaniyat, kommunikatsion nutq.

THEORETICAL ISSUES AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING SPEECH CULTURE IN TEACHERS

Zulfizar Rakhmonova

Independent researcher

E-mail: sitoraa@mail.ru

ABSTRACT

This article discusses the art of speech, the importance of eloquence, and the role of speech technique in the teacher's activity. It also emphasizes the significance of developing speech culture in the pedagogical field from both scientific and theoretical perspectives.

Key words: Eloquence, ideal speech, speech etiquette, orators, speech technique, language and speech, eloquence, pedagogical culture, communication speech.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У ПЕДАГОГОВ

Зульфизар Рахмонова

Независимый исследователь

E-mail: sitoraa@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается искусство речи, важность красноречия и роль речевой техники в деятельности преподавателя. Также подчеркивается значение развития речевой культуры в педагогической области с научной и теоретической точек зрения.

Ключевые слова: Красноречие, идеальная речь, речевая этикет, ораторы, речевая техника, язык и речь, культура общения, педагогическая речь.

KIRISH

Maktabda o'quvchilar nafaqat aniq va gumanitar fanlarning asoslarini balkim odamiylik, insoniylikning qonun-qoidalarini ham o'rganadilar. Bolalarga uni singdirishda o'qituvchining o'rni nihoyatda kattadir. Shu sababga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga katta e'tibor berilgan. Talabalarning o'qituvchi sifatida takomil topishida o'qituvchining o'rnini hech qaysi vosita bosa olmaydi. Ayniqsa, talabalarning nutqiy malakalarini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o'qituvchi nutqining ham o'ziga xos o'rni mavjud. Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi hech bir istisnosiz barcha fanlar bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Nutq madaniyati o'qituvchida yuksak darajada bo'lishi shart. Bunda ovoz ham ahamiyatli. O'qituvchi nutqi jarangdor, aniq, turli shevaga xos so'zlardan holi bo'lishi kommunikativ qobiliyati yuqori bo'lishi zarur. Dunyodagi har bir kasbni egallashda nutq madaniyati muhim quroldir. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiluvchi hamda ularning vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi insonlar, hech shubhasiz, o'qituvchilardir. O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi yillarda ushbu muammoga jiddiy e'tibor qaratildi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqlol mafkurasimuhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri millat tilidir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati go'zalligi uning tilidadir" deyilar. Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining sodda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori bo'lishiga alohida e'tibor bergan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.[1] Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasini favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb, e'tirof etilgan. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari o'qituvchining nutqiy madaniyat mahorati farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir.[2] Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Taniqli pedagog A.Avloniy fikriga ko'ra [3] nutq madaniyati:

- 1) tildagi mavjud til hodisasi nomi;
- 2) nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;
- 3) madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq normatik tasavvurlarning nomi;
- 4) tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot obyekti bo'lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
- 5) nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi[4]fan bo'lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Metodist olim M.Sobirovaning "Notiqlik san'ati" o'quv qo'llanmasida[12] va boshqa bir qator ilmiy izlanishlarida[6,7,8,9,10,11] o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir qancha talablar qo'yiladiki, pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat: o'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlar bayoni aniq, tushunarli bo'lishi, nutq jarayonida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralardan foydalanishda ularning uzviy (bog'liq)ligiga erishish, nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, xatti-harakatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish, nutq talaffuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini (peda-psixofiziologik) hisobga olish, o'qituvchi nutqining talaffuzida ahloqiy normalarning shakllangan bo'lishi, o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida uslubiy, stilistik xatolarga yo'l qo'ymasligi, o'qituvchining nutq qobiliyati rivojlangan bo'lishi, o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish, ongi, xulqida insoniy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z san'atiga qat'iy rioya qilishi, o'qituvchi notiqlik san'atini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi, muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi, muloqot jarayonida o'qituvchi to'liq va to'g'ri fikrlay olishga o'rganishiga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematik o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uun ham birdek zaruriy

fazilatdir. O'qituvchi nutqi adabiy talaffuz meyorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'la olishi lozim. Adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishi, eng avvalo, shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi va o'quvchilari nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamon qutilish oson kechmaydi. Buning oqibatida, aytaylik, buxorolik o' tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlik o' tovushini asosan a tarzida yoki unga yaqin tarzda talaffuz qilishi, toshkentlik oshni – oshshi, yuzni–yuzzi, qorni –qorri tarzida aytilishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi. Ba'zan boshqa tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffuz tamoyiliga ko'ra moslab aytish nuqsoni ko'zga tashlanadi. Yanvar-yinvar, Yaponiya-yiponiya, dekan-dikan, fakultet-fakulitet. Yozma nutqni aynan harflab o'qish ham adabiy talaffuz meyorlarining buzilishiga olib keladi. Masalan; o'qidingiz so'z shaklini yozganida 9 ta emas, 8 tatovush tarzida talaffuz qilinishi yani n g ikki tovush emas, balki bir tovush ekanligi bajardingizmi? O'rtog'in-gizga, berdin-gizmi? kabi xatolarga o'qituvchining o'zi ham yo'l qo'yishi mumkin. Tilning lug'aviy boyligidan foydalanganda me'yorning imkoniyati muallifga takroni, bir xillikni yengishda chiroyli nutq tuzishda qo'l keladi. Nutqning to'g'riligi uning adabiy me'yorlariga mosligidir. Nutq o'zida adabiy tilning fonetik talaffuz, lug'aviy so'z yasaliishi Grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Nutqning to'g'riligi uning eng aloqaviy fazilatidir.

Nutq shaxsiy hodisa. Agar so'zlovchi adabiy me'yorlarini kishi egallamagan bo'lsa yoki o'z shevasi bergan shaxsiy variantni afzal deb qarasa, uning puxta adabiy me'yordan cheklanishi mumkin. O'zbek tili xususiyat jihatidan uch lahzadan iborat. Kelishik me'yorlari. Adabiy tilimizda —kuchli|| va —kuchsiz|| me'yorlari bor. Kuchli me'yorlar adabiy tilda so'zlovchi shaxslar tomonidan hamma vaqt amalgam oshiriladi. Kuchsiz me'yorlar og'zaki nutqida ham e'tibor berilishi oqibatida yuzaga keladi. O'zbek tilining qorluq lahjasidagi maxsus shahar shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko'rsatkichga ega, ya'ni 2 kelishik uchun ham –ni xizmat qiladi. Qaratqich-qaralmish aloqasida xoslik ma'nosi ifodalanishida ba'zi bir o'zgacha sharoitlarda qaratqich ko'rsatkichi ishlatilmaydi. Masalan: o'zbek tili, shahar kengashi, bahor fasli. Turli sabablarga ko'ra kelishik qo'shimchalarini almashtirib ishlatish, ya'ni hamma hollarda ham hozirgi zamon o'zbek tili normalarini buzish hisoblanadi. Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hokazo ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rangbaranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining

soʻzlariga ilovaboʻladigan va kuchaytiradigan qoʻl-barmoqlari va yuz harakatining maʼnosini tushunishga oʻrganadi.

Nutq soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi koʻrinishi boʻlib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi boʻlgan maqsadning tinglovchi va kitobxoniga toʻliq yetib borishi, ularga maʼlum taʼsir oʻtkazishi nazarda tutiladi. Shunga koʻra nutq oldiga maʼlum talablar qoʻyiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan toʻgʻri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq boʻlishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari deb qaraladi.

1. Nutqning toʻgʻriligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyliigi.
4. Nutqning sofligi.
5. Nutqning taʼsirchanligi.

Ovoz. Baʼzilarga tovush tugʻma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin. Oʻqituvchi tovushining oʻziga xosligi nimada? Avvalo, bu tovushning kuchliligi hamda uning kuchli nutq apparati organlarining aktivligiga bogʻliq. Tovushning uchuvchanligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushni yengil oʻzlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon – tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr – tovush buyogʻi, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqligi, oʻziga xosligi. Oʻqituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. Oʻqituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt soʻzlashishdan qochishi kerak. Zarur boʻlib qolsa, qisqa va sekin gapirishi kerak. Dars jadvali qoʻyilishida shunga eʼtibor berish kerak. 3-4 soat darsdan soʻng nutq apparati charchaydi, shundan soʻng 1 soat tovush dam olishi kerak. Koʻp stajli, yaʼni tajribasi koʻp oʻqituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yoʻllari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga eʼtibor berish kerak. Diksiya – soʻz, boʻgʻin, tovushning aytilishidagi toʻgʻri vaaniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bogʻliq. Maxsus mashqlar boshqariladi. Ritmika – ayrim boʻgʻinlarni aytishdagi toʻliq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi boʻlib, baʼzanintonatsiya va pauza oʻziga soʻzdan koʻra kuchli emotsional taʼsir qiladi. Nutq tezligi oʻqituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bogʻliq boʻladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha boʻladi. Ruslarda minutiga 120 soʻz atrofida, inglizlarda 120-150 soʻz gacha. Tadqiqotlarga koʻra 5-6-sinflarda oʻqituvchi minutiga 60 soʻz, 9-

11 sinflarda 75 soʻz gapirishi toʻgʻri boʻladi. Mavzuning murakkab qismini oʻqituvchi past tempda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Qoida, qonunlar aytganda, xulosada nutq sekinlashadi. Nutq texnikasi. Oʻquv vaqtining koʻp qismi (1/4, 1/2) da oʻqituvchining nutqi bilan boʻliq boʻladi. Shuning uchun oʻquv materialini oʻquvchilar tushunishi oʻqituvchi nutqi mukammalligi bilan bogʻliqdir. Baʼzilar tovush va uning tembri tugʻma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni toʻliq qayta qurish mumkinligini aniqlamoqda. Bugungi kunda nutq texnikasi boʻyicha ishlashning teatr pedagogika tajribasi asosida nutqiy nafas, tovush, diksiya, ritmika kabi komplekslarini ishlash koʻzda tutiladi. Nafas. Nafas organizmga hayot taʼminlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat qiladi. Nutqiy nafas fonosiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda boʻlib, nafas qiyinchilik tugʻdirmaydi. Darsda oʻqituvchi koʻp soʻzlagan, maʼruza oʻqigan vaqtlarda oʻzgarmagan nafas hamda oʻrganmagan nafas qiyinchilik tugʻdiradi: yuz qizarib ketishi, charchab qolish holatlari boʻlishi mumkin. Nafas jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab nafasning 4 ta tipi ajratiladi: yelka vakoʻkrak qafasining yuqori qismini koʻtaruvchi muskullar ishtirok etadi. Bu kuchsiz, yuqori nafas boʻlib, oʻpkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi; koʻkrak orqali nafasni qovurgʻalar orasidagi muskullar amalga oshiradi. Diafragma kam harakatdaboʻlib, nafas chiqarish kuchsiz; diafragma nafas – koʻkrak hajmining oʻzgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga boʻladi; diafragma va qovurgʻa orqali nafas – diafragmaning har tomonlama hajmi oʻzgarishi, qovurgʻalar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas toʻgʻri boʻlib, bu nutqiy nafas uchun asos boʻlib hisoblanadi. Yosh oʻqituvchilar uchun nafas olish texnikasi ustida qisqacha toʻxtalishga toʻgʻri keladi: Yuqori nafas – yelkalar va koʻkrak qafasi muskullarining koʻtarilishi va tushishi orqali amalga oshadi. Bu kuchsiz, yuzaki nafas olishni paydo qiladi, bunda oʻpkaning yuqori qismigina faol ishlaydi. Koʻkrak qafasi bilan nafas olish – qovurgʻa oraliqlari va muskullar orqali amalga oshadi. Bunda koʻkrak qafasi hajmining koʻndalang qismida oʻzgarish boʻladi. Diafragma harakatining kamligi tufayli, nafas olish yuzaki boʻladi. Diafragma orqali nafas olish – koʻkrak qafasi hajmini uzunasiga oʻzgarishi natijasida diafragma qisqaradi, buning asosida qobirgʻaaro muskullarning qisqarishi kuzatiladi.

XULOSA

Oʻqituvchining takomillashgan nutqqa ega boʻlishi, oʻquv materialini talabalar tomonidan puxta oʻzlashtirilishini taʼminlash garovidir. Bolalar oʻqituvchi nutqiga juda eʼtibor beradilar. Biror harf yoki tovushning notoʻgʻri aytilishi kulgiga sabab boʻladi. Bir ohangdagi nutq tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi oʻqituvchining baland ovozidan oʻquvchi oʻzini aldanayotgandek his etadi. Bu oʻqituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uygʻotadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tugʻma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi

eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'quvchilarga ijobiy ta'sir etishni puxta egallashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari. – Toshkent: Sharq.1999, 256 b.
2. Ona tili– davlat tili. –Toshkent: Adolat.2004, 80 b.
3. A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.–Toshkent:O'qituvchi, 1992.
4. Yo'ldashev J. Hayot va tafakkur sayyorasi.–Toshkent: Fan. 1991.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003, 68 b.
6. Sobirova M. The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> ctp. 98-105
7. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
8. Sobirova M. Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. **Design Engineering**. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) CKOIIYC 5288-5295 <http://thedesignengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>.
9. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 7.2. VOLU- ME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
10. Sobirova M. Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (111), <http://t-science.org/axivDOI/2022/07-111.html>– P. 36-39.
11. Sobirova M. **Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach.** <https://www.int-jecse.net/ABSTRACT.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE/V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
12. Sobirova M. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2019-y. – B.148.